


Sh.M.Saidov,
X.X.Choriyeva



DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI

USLUBIY QO'LLANMA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA

INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY

UNIVERSITETI

IJTIMOY FANLAR FAKULTETI


HUQUQIY FANLAR KAFEDRASI

Sh.M. Saidov

X.X. Choriyeva

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI

USLUBIY QO'LLANMA



Toshkent – 2024

Sh.M. Saidov, X.X. Choriyeva
Davlat va huquq nazariyasi [Matn] uslubiy qo'llanma / Saidov Sh.M.,
Choriyeva X.X. – Toshkent: “Zuxro Baraka Biznes” nashriyoti, 2024.– 256 b

Mas'ul muharrir:

V.R.Topildiyev – “Huquqiy fanlar” kafedrasи professori, yu.f.d.

Taqrizchilar:

B.S.Ismailov – O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti “Huquqiy fanlar” kafedrasи katta o‘qituvchisi, y.f.f.d (PhD)

Z.R.Ro‘ziyev – Davlat tilini rivojlantirish departamenti mas’ul xodimi,y.f.d., professor

Mazkur uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalari, tadqiqotchilari, o'qituvchilari, amaliyat xodimlari va keng omma uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat va huquq nazariyasi faniga oid tushunchalar, fanning kelib chiqishi, boshqa fan sohalari bilan bog'liqligi, davlat tushunchasi va shakllari, funksiyalari, huquq normasi, qonun ijodkorligi, huquqiy javobgarlik va xulq-atvor qoidalari bilan bog'liq tasavvur hamda ko'nikmalarga ega bo'lishga qaratilgan.

Uslubiy qo'llanma tadqiqotchilar va talabalarga mo'ljallangan bo'lib, undan ta'lim jarayonida, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish tavsiya etiladi.

Uslubiy qo'llanma O‘zbekiston Milliy universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil 28-oktabrdagi 2-sonli bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Saidov Sh.M., Choriyeva X.X., 2024
© “Zuxro Baraka Biznes” nashriyoti, 2024

MUNDARIJA

Kirish.....	4
1-mavzu. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va metodlari.....	5
2-mavzu. Davlat va huquqning kelib chiqishi	17
3-mavzu. Davlat mohiyati va tiplari	27
4-mavzu. Davlat funksiyalari.....	41
5-mavzu. Davlatning shakllari	54
6-mavzu. Davlat mexanizmi	67
7-mavzu. Ijtimoiy munosabatlar va huquq.....	79
8-mavzu. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat.....	91
9-mavzu. Huquq normalari.....	102
10-mavzu. Huquq shakllari (manbalari).....	114
11-mavzu. Huquq ijodkorligi.....	127
12-mavzu. Huquq tizimi va huquqiy tizim	138
13-mavzu. Huquqiy munosabatlar.....	153
14-mavzu. Huquqni amalga oshirish.....	165
15-mavzu. Huquq normalarini sharhash.....	180
16-mavzu. Huquqiy xulq-atvor. Huquqbazarlik va yuridik javobgarlik.....	195
17-mavzu. Huquqiy tartibga solish mexanizmi.....	210
18-mavzu. Qonuniylik va huquq tartibot.....	227
19-mavzu. Davlat va huquqning rivojlchanish istiqboli va yo'llari	238

KIRISH

Davlat va huquq nazariyasi mohiyatan umumnazariy ahamiyatga ega hisoblangan fundamental yuridik fan hisoblanadi. U barcha yuridik fanlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda davlat va huquq nazariyasi huquqshunos kadrlarni tayyorlashda asosiy bosh bo‘g‘in fan sifatida yuridik ta’lim muassasalarida o‘qitilib kelinmoqda. Ushbu fan davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi bosqichlarini o‘rgangan holda, ularning jamiyat rivojlanishidagi o‘rni hamda ahamiyatini aniqlashga imkon beradi. Shularga ko‘ra, davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq tushunchasi, davlatning funksiya, tiplarini, mexanizmini, erkin fuqarolik jamiyatini, huquqiy davlat barpo etish kabi g‘oyalarni o‘rganishda ibtido bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat va huquq nazariyasi fani o‘zining mohiyati va mazmuniga ko‘ra bir necha yuridik va boshqa fanlar bilan bog‘liq hisoblanadi. Misol uchun falsafa fanini oladigan bo‘lsak, bir qarashda ushbu ikki fanning bir-biriga bog‘liq joyini ko‘rmaymiz. Lekin so‘nggi paytlarda huquqiy bilimlar nuqtai nazaridan nazariy masalalar nafaqat sof yuridik fanlar, balki huquqning falsafiy, psixologik jihatlari bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda.

Huquqni falsafiy tushunish XVIII asrgacha davom etgan. Keyinchalik G.Gyugo tomonidan “Huquq falsafasi” atamasi fanga olib kirilgan. Ushbu atama huquq nazariyasing sinonimi sifatida qo‘llanilgan¹. Ukrainianlik olim Skakun falsafa davlat va huquq nazariyasing asosi bo‘lib xizmat qilishi, davlat va huquq nazariyasing ilmiy aylanishi falsafiy kategoriyalar: mohiyat, mazmun va shakl, tizim va tuzilish asosida olib borilishi, falsafiy tahlil orqali davlat va huquqning ijtimoiy hodisa sifatida tushunishda kalit ekanligini keltirib o‘tadi.

¹ Correlation between Philosophy and Theory of State and Law. Monografiya. 2021 yil.Oleg Grigor, Yuri Krisyuk, Angela Boyko, Vadim Zubov, Igor Sinegub.

MA'RUZA MATNI

1-MAVZU. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASINING PREDMETI VA METODLARI

Reja:

1. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti
2. Davlat va huquq nazariyasi fanining yuridik fanlar tizimida tutgan o'rni
3. Davlat va huquq nazariyasi fanining metodlari

O'quv mashg'ulotining maqsadi – talabalarning davlat va huquq nazariyasi fani predmeti hamda uning o'ziga xos xususiyatlari, yuridik fanlar tizimi, davlat va huquq nazariyasi fanining metodlari va fanning funksiyalari to'g'risida bilimlarga ega bo'lishiga ko'maklashish. O'quv mashg'uloti yakuni bo'yicha talaba fan, nazariya, qonuniyat predmet, metod, obyekt tushunchalarini farqlay olishiga erishish.

- **Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti deganda nima tushuniladi?**

Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi, harakatda bo'lishi (faoliyat ko'rsatishi) va istiqboli to'g'risidagi eng umumiy qonuniyatlarni o'rganadi.

Uning predmetiga faqat amaldagi davlat, huquq munosabatlari, jarayonlari, hodisalarining eng umumiy belgilarigina emas, balki bular haqidagi tasavvurlar ham kiradi.

Davlat va huquq nazariyasi predmetining o'ziga xos xususiyatlari:

- davlat va huquq nazariyasi – ijtimoiy fan (uning o'rganadigan sohasi muhim ijtimoiy hodisalar bo'lmish davlat va huquqdir);
- davlat va huquq nazariyasi – nazariy fan (u davlat va huquq itaraqqiyotining umumiy qonuniyatlarni ochib beradi);

- davlat va huquq nazariyasi – falsafiy xususiyatga ega bo‘lgan fan;
- davlat va huquq nazariyasi – metodologik fan (barcha huquqshunoslik fanlarini umumiy huquqiy metodologiya bilan qurollantiradi);
- davlat va huquq nazariyasi – amaliyotga yo‘naltirilgan fan;
- davlat va huquq nazariyasi – o‘quv-tarbiyaviy ahamiyatga molik fan.

Davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslik fanlari tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. U yuridik fanlarning metodologik poydevorini tashkil etib, davlat va huquqning nazariy muammolarini o‘rganadi. “Nazariya” iborasi “ko‘rib chiqmoq”, “tadqiq etmoq”, “tahlil qilmoq” degan ma’nolarni anglatadi. “Nazariya” – keng ma’noda voqeahodisalarning o‘zaro aloqasi va qonuniyatlari haqida yaxlit tasavvur hosil qiluvchi ilmiy bilim shaklidir. Tor ma’noda esa u yoki bu sohadagi bilimning asosiy g‘oyalari, tushunchalari va qonunlari tizimidir.

- Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida qanday fan sifatida maydonga chiqadi?**

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida **umumiy, fundamental va metodologik** fan sifatida yuzaga chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi bilan Davlat va huquq tarixi fani bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning har ikkalasi ham davlat va huquq haqida bahs yuritadi.

Davlat va huquq nazariyasi boshqa yuridik fanlar bilan ham xuddi shunday ikki yoqlama aloqadadir. Demak, Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida markaziy, umumlashtiruvchi ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, barcha yuridik fanlarning yutuqlarini umumlashtiradi va ularning o‘zaro boyishiga yordam beradi. Yuridik fanlar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi (tasniflanadi):

- 1) **tarixiy-nazariy yuridik fanlar** (davlat va huquq nazariyasi, davlat va huquq tarixi, siyosiy huquqiy ta’limotlar tarixi va h.k.);
- 2) **maxsus va tarmoq yuridik fanlar** (fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, mehnat huquqi, ma’muriy huquq, konstitutsiyaviy

huquq, moliya huquqi, yer huquqi, jinoyat protsessual huquqi, fuqarolik protsessual huquqi va boshqalar);

3) **amaliy yuridik fanlar** (kriminalistika, sud buxgalteriyasi, sud meditsinasi, sud psixiatriyasi);

4) **Xalqaro-huquqiy fanlar** (xalqaro ommaviy huquq, xalqaro xususiy huquq)

• **Davlat va huquq nazariyasini o'rganishda fan metodlarining ahamiyati qanday?**

“Metod” – bu biron-bir faoliyat, jumladan, tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini o'rganish, tadqiq etishda maqsadga erishish yo'llari va vositalaridir.

Davlat va huquq nazariyasi (fan)ning metodlari – davlat va huquq hodisalarini o'rganish usullari hisoblanadi. Ular davlat va huquqning turli sohalari va jihatlarini ochib berishga ko'maklashadi. Davlat va huquq to'g'risidagi bilimlarni o'rganish, to'plash, umumlashtirish va muayyan tizimga keltirishga yordam beradi. Davlat va huquq nazariyasi metodlarini to'rt guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin:

1) **Eng umumiy metodlar:** metafizik va dialektik metodlar;

2) **Umum-ilmiy metodlar:** Analiz, Sintez, Induksiya, Deduksiya, Tizimli, Funksional v.b.;

3) **Xususiy metodlar:** sotsiologik, qiyoslash, statistik, mantiqiy v.b.;

4) **Xususiy-huquqiy metodlar:** formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, huquqiy modellashtirish v.b.

Davlat va huquq nazariyasi metodlari uning predmeti bilan chambarchas bog'liqdir.

Agarda fanning predmeti – u nimani o'rganadi degan savolga javob bersa, metodlari esa qanday o'rganishi haqidagi savolga javob beradi.

Fanning metodi asosida uning predmeti yotadi, chunki nazariyasiz metod predmetsiz qoladi, fan esa mazmun va mohiyatsiz.

Nazariya va metod bir paytda paydo bo'ladi, lekin ular bir-birining o'rnini bosa olmaydi.

Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq hodisalarini o'rganish uchun o'zining xususiy metodlarini ishlab chiqadi, lekin shu



bilan birga ijtimoiy va tabiiy fanlar tomonidan ishlab chiqilgan umumiylar metodlarni ham faol qo'llaydi. Fanda uzoq muddat davomida bilishning idealistik va materialistik metodlari bir-biriga qarshi kurashib keladi (metafizika, dialektika). Falsafiy qonun va kategoriyalarga bevosita kirishib (bog'lanib) ketadigan metodlardan biri – mavhumlik (abstrakt)dan konkretlikka va konkretlikdan mavhumlikka o'tish metodidir.

Jumladan, davlat va huquq haqidagi hodisalarini o'rganishda tarixiy metod ham qo'llaniladi. Chunki fan davlat va huquqning ildizini bilish uchun tarixiy an'analarni bilishi zarur bo'ladi.

Davlat va huquqni o'rganishning yana bir metodi – tizimli metod hisoblanadi. Davlat va huquq mohiyatiga, tuzilishiga ko'ra – murakkab tizimli hodisadir.

Yuqoridagi metodlarning barchasi umum-ilmiy metodlar jumlasiga kiradi. Davlat va huquq nazariyasining umum-ilmiy metodlari bilan bir qatorda davlat va huquq tushunchasini aniqlashga yordam beruvchi xususiy-ilmiy metodlar mayjud. Bu metodlarga quyidagilar kiradi: formal-mantiqiy, formal-yuridik, qiyoslash, davlat va huquqni modellashtirish, konkret-sotsiologik, sotsial-eksperiment v.b.

CHIZMALAR (1.1)



MAVZUGA OID KAZUSLAR* (1.2)

1. Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida umumiy, fundamental va metodologik fan sifatida maydonga chiqadi. U bir tomonidan, ijtimoiy yo‘nalish va mazmunga, ikkinchi tomonidan, yuridik vogelikni, davlat va huquq hodisalarini ilmiy, nazariy jihatdan tahlil etish xususiyatiga ega. Davlat va huquq nazariyasining boshqa yuridik fanlar bilan aloqasi aynan shunda namoyon bo‘ladi.

Mazkur fanning yuridik fanlar tizimidagi o‘rnini muhokama qiling va atroflicha yoriting.

2. Davlat va huquq nazariyasining amaliyotga yo‘naltirilgan fan sifatidagi xususiyatlarini atroflicha muhokama qiling.

3. Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq hodisalarini o‘rganish uchun o‘zining xususiy metodlarini ishlab chiqadi, lekin shu bilan birga ijtimoiy va tabiiy fanlar tomonidan ishlab chiqilgan umumiy metodlarni ham faol qo‘llaydi. Fanda uzoq muddat davomida bilihning idealistik va materialistik metodlari bir-biriga qarshi kurashib keladi (metafizika, dialektika).

Mazkur metodlarni muhokama qiling va atroflicha yoriting.

4. Davlat va huquq nazariyasi moduli bo‘yicha dars mashg‘ulotlari davomida o‘qituvchi Nazarov xorijiy mamlakatlarda ham Davlat va huquq nazariyasi predmeti va obyektiga yaqin bo‘lgan modullar mavjud ekanligini talabalarga tushuntirdi. Misol sifatida, AQSHning Boston universiteti Huquq fakultetida “Philosophy of law” modulidan talabalar huquqning umumiy mazmun-mohiyati va falsafiy qarashlarini o‘rganishi tushuntirib o‘tildi.

Talaba Barakayev “Theory of Jurisprudence”, “Philosophy of Jurisprudence”, “Sociology of Law”, “Fundamentals of Law” kabi modullar ham Yevropa oliv o‘quv yurtlarida bakalavriat bosqichi talabalariga o‘rgatilishini amaliy misol sifatida keltirib o‘tdi.

*Izoh: Kazus savollari “DHNning predmeti va metodlari” moduli doirasida tuzilgan

Davlat va huquq nazariyasi modulining predmeti va obyektini Yevropa mamlakatlari oliy o‘quv yurtlarida olib borilayotgan shu toifadagi modullar bilan qiyosiy tahlil eting.

5. Nazariya keng ma’noda voqeа-hodisalarning o‘zaro aloqasi va qonuniyatlar haqida yaxlit tasavvur hosil qiluvchi ilmiy bilim shakli bo‘lsa, davlat va huquq nazariyasi davlat-huquqiy hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va amal qilishini o‘rganuvchi umumnazariy yuridik qonuniyatlar haqidagi bilimlar tizimining yig‘indisi hisoblanadi. Davlat va huquq nazariyasi nazariy fan bo‘lishi bilan bir qatorda amaliyotga yo‘naltirilgan fandir. Fanning mazkur xususiyati yuzasidan turli fikrlar bildiriladi.

Masalani atroflicha muhokama qiling.

MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI* (1.3)

1. Davlat va huquq nazariyasining predmeti ... hisoblanadi.

- a) davlat va huquqning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va faoliyatda bo‘lishiga oid qonuniyatlar
- b) davlat va huquq
- c) barcha ijtimoiy institutlar
- d) demokratiya tamoyillarini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi

2. Davlat mexanizmi, qonun ustuvorligi, huquqiy, siyosiy va shuningdek, ijtimoiy amaliyotning siyosiy, huquqiy jarayonlar va hodisalarga ta’sir ko‘rsatadigan umumiyligi davlat va huquq nazariyasining _____ dir.

- a) obyekt
- b) mexanizm
- c) usul
- d) toifasi

3. Davlat va huquq nazariyasi barcha yuridik fanlar bilan _____ bilimlari bilan birlashtirilgan.

- a) obyekt
- b) predmet
- c) metod
- d) prinsip

4. Davlat va huquq nazariyasini fan sifatida o‘rganish predmeti ...

- a) yagona davlatning xronologik rivojlanishi
- b) davlat-huquqiy voqeliklari va jarayonlarining o‘zaro ta’sirining umumiy qonuniyatları
- c) davlat va huquqning shakllari va funksiyalari
- d) davlat va huquq paydo bo‘lishining sabablari

5. Davlat – davlat va huquq falsafasi va nazariyasining _____ hisoblanadi.

- a) obyekt

*Izoh: mazkur test savollari “DHNning predmeti va metodlari” moduli doirasi tuzilgan.

- b) predmet
- c) metod
- d) sposob

6. _____ metodi davlat va huquqiy hodisalarning o‘xhashliklari, farqlari va o‘zaro bog‘liqligini aniqlash uchun foydaliladi.

- a) qiyosiy
- b) eksperiment-tajriba
- c) dialektik
- d) statististik

7. Huquqiy tizimlarning o‘xhashliklari, farqlari va tasnifini tahlil qilish uchun _____ metodidan foydaliladi.

- a) qiyosiy huquqiy
- b) miqdoriy analiz
- c) statistik tadqiqotlar
- d) eksperiment-tajriba

8. _____ metodi ma’lum doirada takrorlanadigan davlat va huquqiy hodisalarning miqdoriy ko‘rsatkichlarini olishga imkon beradi.

- a) statistik
- b) qiyosiy
- c) funksional
- d) kibernetik

9. Atrofdagi olam hodisalarini doimiy ravishda rivojlanishida va boshqa hodisalar bilan o‘zaro bog‘liqlikda, haqiqatan ham mavjud bo‘lib bilish imkoniyatini beradigan universal bilish metodi ... deb nomlanadi.

- a) dialektik
- b) tizimlilik
- c) qiyosiy
- d) kibernetik

10. Bu _____ atrofdagi haqiqatni bilish metodi bo'lib, bir obyekt haqidagi bilimlarni aqliy ravishda boshqa o'r ganilmagan, amma sifatlari jihatidan birinchisiga o'xshash tarzda o'tkazishni talab etadi.

- a) analogiya
- b) deduksiya
- c) qiyosiy
- d) mavhumlashtirish

MAVZUGA OID NAZARIY SAVOLLAR (1.4)

1. Ma'lumki, davlat va huquq hodisalarini ko'plab fanlar tadqiq qiladi. Shular jumlasidan davlat va huquq nazariyasi ham. Davlat va huquq nazariyasining davlat va huquq hodisalariga yondashuvini boshqa fanlar bilan taqqoslagan holda tahlil qiling.
2. Davlat va huquq nazariyasining amaliyotga yo'naltirilgan fan ekanligini amaliy misollar yordamida asoslang.
3. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va uning o'ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.
4. Davlat va huquq nazariyasi fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasini yoritib bering.
5. Davlat va huquq nazariyasining yuridik fanlar tizimidagi o'rni nimadan iborat?
6. Davlat va huquq nazariyasi fanining metodlarini tahlil qilib bering.
7. Davlat va huquq nazariyasi fanining funksiyalari nimalardan iborat?
8. O'quv modul sifatida davlat va huquq nazariyasining tuzilishi qanday?
9. Fanni o'rganishda tarixiy metod qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
10. Xususiy-ilmiy metodlarga qaysilar kiradi?

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Davlat va huquq nazariyasi / Mas’ul muharrirlar H.B.Boboyev, H.T.Odilqoriyev. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. – 528 b.
2. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2007. – 916 b.
3. Исламов З.М. Теория государства и права (Часть 1. Теория государства). Учебник. – Т.: ТГЮИ, 2013. – 325 с.
4. Лазарев В.В., Липень С.В., Саидов А.Х. Теория государства и права: Учебник. Под ред. акад. Абдурахманова К.Х. – М.: Рос. экон. акад., 2008.– 620 с.
5. Odilqoriyev X.T., Tulteyev I.T. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / Prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – T.: Sharq, 2009. – 592 b.
6. Davlat va huquq nazariyasi / Mas’ul muharrir H.T.Odilqoriyev. – T.: Adolat, 2021. – 544 b.
7. Davlat va huquq nazariyasi / Mas’ul muharrir Sh.A.Saydullayev. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021. – 248 b.

Xorijiy adabiyotlar

1. Scott Veitch, Emilius Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence Themes and Concepts. Second edition. – L.: Routledge publication, 2012.– 305 p.
2. Hart H.L.A. The Concept of Law. 3rd edition. – Oxford: Oxford university press, 2012. – 333 p.

Normativ-huquqiy hujjatlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi //
<https://lex.uz/docs/6445145> 2023 y, 155 modda.

MA'RUZA MATNI

2-MAVZU. DAVLAT VA HUQUQNING KELIB CHIQISHI

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi va uning rivojlanishi
2. Davlatning kelib chiqishida G‘arb va Sharq modellari
3. Davlat va huquqning kelib chiqishi haqida nazariyalar

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi – talabada jamiyat tushunchasi, jamiyat mayjud bo‘lishi shakllarining xilma-xilligi, davlatgacha bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy normalar va ijtimoiy hokimiyatning o‘rnini hamda davlat va huquqning vujudga kelishi to‘g‘risidagi nazariyalar haqida tushunchalar shakllanadi. Mashg‘ulot yakuni bo‘yicha talaba jamiyat, ijtimoiy normalar va ijtimoiy hokimiyat tushunchalarini anglaydi.

- Jamiyat qanday hodisa va uning rivojlanishiga qaysi omillar ta’sir etadi?

Jamiyat – bu tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar mahsuli. Jamiyat – bu kishilar o‘rtasidagi o‘zaro turli xil (iqtisodiy, oilaviy, ma’naviy, guruhiy, diniy va boshqa) munosabatlar va aloqalar yig‘indisi.

Jamiyat rivojlanishiga qator omillar ta’sir etadi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivoji, mulkiy va ijtimoiy tengsizlik, shubhasiz, ibridoiy jamoa tuzumining inqirozi va urug‘-qabilachilik hokimiyatining davlatga aylanishida birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuningdek, jamiyatning rivojlanishiga tabiiy omillar, ya’ni iqlim sharoitlari, aholining dengiz va boshqa suv havzalari yaqinida joylashganligi yoki o‘rmon va cho‘l hududlarida istiqomat qilishi kabilar ham ta’sir o‘tkazgan.

Davlatning kelib chiqishida G‘arb va Sharq modellarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?

Osiyoda dastlabki davlatlar bundan besh ming yillar oldin Nil, Tigr, Hind, Ganga, Yanszi, Yevfrat kabi yirik daryolarning havzalarida yuzaga kelgan.

Ushbu hududlarda davlat vujudga kelishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi natijasida yirik irrigatsion tarmoqlarni tashkil etish yuzasidan ommaviy ishlarni yo'lga qo'yishning zarurati;
- mazkur ishlarga aholini keng miqyosda jaib etish;
- irrigatsion ishlarga jaib etilgan kishilar ustidan yagona va markazlashgan rahbarlikni amalga oshirishning zarurati v.b.

Yevropada davlatlarning vujudga kelishida asosiy omil bo'lib xususiy mulkning shakllanishi munosabati bilan jamiyatda mulkiy tengsizlikning va shu asosda turli xil sinflarning yuzaga kelishi xizmat qilgan. Shuningdek:

- davlat vujudga kelishida irrigatsion ishlarning o'rni;
- davlat vujudga kelishida xususiy mulkning ta'siri.
- **Davlat – jamiyat mavjud bo'lishining bir shakli sifatida qanday namoyon bo'ladi?**

– davlat jamiyat bilan bir vaqtida yuzaga kelgan emas (dastlabki davlat tuzilmalari bundan besh ming yillar oldin yuzaga kelgan bo'lsa, ibtidoiy jamoalar bir yarim million yillar davomida shakllanib kelgan);
– davlat ijtimoiy rivojlanishning mahsuli sifatida vujudga kelgan;
– davlat tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida shakllangan;
– davlatning yuzaga kelishiga bir qator omillar, xususan, geografik, diniy, ruhiy, iqtisodiy, sinfiy omillar sabab bo'lgan.

Davlat umumiy muammolarni hal etish — tashqi dushmanlardan himoyalanish, jamoat ishlarini ta'minlash, ommaviy qirilib ketishdan saqlanish sharoitlarini yaratish va boshqa zaruratlar tufayli vujudga kelgan.

Davlat hokimiysi jamoa ichida tartibni va tashqi hujumlardan xavfsizlikni qanchalik tez va yaxshiroq ta'minlasa, shunchalik jadal va mustahkamroq tarkib topgan. Binobarin, davlat, albatta, boshqaruv va majburlov mahkamasiga ega bo'lgan. U davlatning o'ziga xos funksiyalariga aylangan va o'sha vazifalarni bajarishga xizmat qilgan.

- **Tegishli adabiyotlarda davlatlarning kelib chiqishi turli xil nazariyalar doirasida tadqiq etilishining sababini nimalarda ko'rish mumkin?**

birinchidan, din va davlatning o‘zaro bog‘liqligi hamda davlat paydo bo‘lishida dinning o‘rni;

ikkinchidan, davlat hokimiyati kishilarning o‘zaro birlashib ixtiyoriy shartlashganliklarining ifodasi sifatida namoyon bo‘lishi;

uchinchidan, ommaviy ishlarni tashkil qilishda hokimiyat zarurligini ko‘rsatib berilganligini ko‘rish mumkin.


E’tibor qarating!

Davlat paydo bo‘lishida turli nazariyalarni o‘rganish davlat paydo bo‘lishida turli hududlarda har xil omillar ta’siri ostida bo‘lib o‘tganligini ko‘rsatadi. Bu esa talabalarning davlat va huquqning ijtimoiy tabiatini, mohiyatini, ularning xususiyatlari va belgilarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Ularga xos bo‘lgan barcha funksiyalarni aniq belgilab olishga, ularning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini yanada aniqlab olishga yordam beradi.

Adabiyotlarda davlat va huquqning vujudga kelishi jarayonining o‘zi turli-tuman ekanligi ta’kidlanadi. Bunda bir tomondan, davlat va huquqning jamiyat hayotida ilk paydo bo‘lish jarayonini farqlash talab qilinadi. Bu – jamiyatda hukm surgan davlat va huquqqacha bo‘lgan hodisa, institut va muassasalarining yemirilishi asosida davlat va huquq hodisalari, institutlari va muassasalarining shakllanish jarayonini ajratish lozim.

Ikkinchi tomondan, oldin amal qilgan lekin qandaydir sabablarga ko‘ra ijtimoiy-siyosiy sahnadan ketgan davlat-huquq hodisalari, institutlari va muassasalari negizida yangi davlat-huquqiy hodisalari, institutlari va muassasalarining shakllanishi va rivojlanishi jarayonini farqlash kerak.

CHIZMALAR (2.1)



MAVZUGA OID KAZUSLAR* (2.2)

1. Jamiyat kishilarning tarixan tashkil topgan hamkorlik faoliyatlarining mahsuli, majmuasi sifatida tushuniladi. Insonlar faoliyati va ular o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Jamiatdagi hamma narsa (maddiy va ma’naviy boyliklar, insonlarning yashashi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish va b.) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Bunday faoliyat sirasiga mulkiy, ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va ularga mos keluvchi munosabatlar kiradi. Aynan ijtimoiy munosabatlar shaxsni ijtimoiy guruhlar, jamiyat bilan bog‘laydi.

Davlatning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy hokimiyat va ijtimoiy normalarni atroflicha muhokama qiling.

2. Yevropada davlatlarning vujudga kelishida asosiy omil bo‘lgan xususiy mulkning shakllanishi munosabati jamiyatda mulkiy tengsizlikning va shu asosda tabaqlanishning yuzaga kelishiga xizmat qilgan. Osiyoda esa sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi natijasida yirik irrigatsion tarmoqlarni tashkil etish yuzasidan ommaviy ishlarni yo‘lga qo‘yishning zarurati asos bo‘lgan. Shu bilan birga, turli xalqlarda davlatning yuzaga kelishida yuqoridagi omillar bilan bir qatorda boshqa omillar ham muhim o‘rin tutgan.

Davlatning vujudga kelishiga ta’sir qilgan omillarni muhokama qiling.

3. Davlat va huquqning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyaning xilma-xilligini asoslang. Ularning o‘xshash va o‘zaro farqli jihatlarini atroflicha muhokama qiling.

4. Davlatning vujudga kelishi to‘g‘risidagi ijtimoiy shartnoma nazariyasining mohiyatini tushuntiring hamda uning ijobjiy va salbiy itomonlarini muhokama qiling.

5. Davlat vujudga kelishining Osiyocha yo‘li va uning alohida xususiyatlarini misollar yordamida ko‘rsating.

*Izoh: Kazus savollari “Davlat va huquqning kelib chiqishi” moduli doirasida tuzilgan

MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI* (2.3)

1. Davlatgacha bo‘lgan davrdagi ijtimoiy normalarning o‘ziga xos xususiyati bu –
a) avloddan avlodga og‘zaki shaklda o‘tishi
b) majburiy ijro
c) tizimlilik
d) majburiy xarakterga egalik
2. Ijtimoiy mehnat taqsimoti davlat paydo bo‘lishining shartidir.
a) iqtisodiy
b) siyosiy
c) ijtimoiy
d) demografik
3. Hokimiyat obyekti va subyekti o‘zaro mos keladigan holat qanday ataladi?
a) ibtidoiy jamiyat
b) oila
c) davlat
d) cherkov
4. Davlat urug‘chilik tuzumidagi hokimiyatdan _____ mavjudligi bilan ajralib turadi.
a) siyosiy hokimiyat
b) oilaviy aloqalar
c) oqsoqollar kengashi
d) mononormalar
5. Davlatchilikning paydo bo‘lishi borasida _____ nazariyasi vakillari tomonidan inson onginining xususiyatlari bilan bog‘liq.
a) psixologik nazariya
b) organik

*Izoh: Mazkur test savollari “Davlat va huquqning kelib chiqishi” moduli doirasi tuzilgan.

- c) ijtimoiy shartnoma
- d) patriarxal

6. Davlatning vujudga kelishi bo'yicha diniy nazariyaning asoschilaridan biri bu _____

- a) F. Akvinskiy
- b) R. Filmer
- c) T. Gobbs
- d) Z. Freyd

7. Davlatning vujudga kelishi bo'yicha _____ vakillari davlat umumiy manfaatni ta'minlash uchun odamlar o'rtasida ixtiyoriy kelishuv asosida vujudga kelgan deb ta'kidlaydi.

- a) ijtimoiy shartnoma
- b) teologik nazariya
- c) patriarxal nazariya
- d) organik nazariya

8. Davlatning vujudga kelishi haqidagi _____ nazariyasining vakillari davlatning paydo bo'lishini er egasi huquqini u erda yashovchilarga kengaytirish bilan bog'laydilar.

- a) patrimonial
- b) irrigatsion
- c) organik
- d) patriarxal

9. Davlatning vujudga kelishi bo'yicha irrigatsion nazariyaning asosi shundaki, davlat _____ paydo bo'ldi.

a) sug'orish tizimlarining ishlashi va muhofazasini ta'minlash uchun

b) sug'orish tizimlaridan foydalanish uchun ijara haqini olish maqsadida

- c) sug'orish tizimlarini qurishni tashkil etish zarurati tufayli
- d) sug'orish tizimlariga egalik qilish maqsadida

10. Zamonaviy davlatning asosiy maqsadi _____
hisoblanadi.

- a) ma'lum bir sinf manfaatlarini qondirish
- b) jamiyatni moddiy farovonlik bilan ta'minlash
- c) jamiyat hayoti va faoliyatini saqlab qolish
- d) jamiyatni ma'naviy manfaatlarini qondirish

MAVZUGA OID NAZARIY SAVOLLAR² (2.4)

1. Davlatni vujudga kelishi to‘g‘risidagi diniy, patriarchal, irrigatsion, zo‘ravonlik, ijtimoiy-shartnoma, psixologik, tarixiy va boshqa nazariyalarning o‘ziga xos muhim jihatlari nimalarda ko‘rinadi?
2. Jamiyat tushunchasini atroficha yoritib bering.
3. Jamiyat mavjud bo‘lish shakllarining xilma-xilligini ifodalab bering.
4. Jamiyat rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni keltirib o‘ting.
5. Davlatgacha bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy normalar va ijtimoiy hokimiyat qanday o‘rin tutadi?
6. Davlat – jamiyat mavjud bo‘lishining muhim shakli sifatida nimalarni bilasiz?
7. Davlat va huquqning vujudga kelishi to‘g‘risidagi nazariyalar nimalardan iborat?
8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida jamiyat, davlat va huquq masalalariga to‘xtalib o‘ting.
9. Tegishli adabiyotlarda davlatlarning kelib chiqishi turli xil nazariyalar doirasida tadqiq etilishining sababini nimalarda ko‘rish mumkin?
10. Davlatning vujudga kelishi bo‘yicha diniy nazariyaning asoschilaridan biri haqida ma’lumot bering.

²Izoh: Mazkur nazariy savollar “Davlat va huquqning kelib chiqishi” moduli doirasi tuzilgan.